

O'zbekiston Respublikasida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2026-yil yanvar-fevral oylari uchun dastlabki ma'lumot

- I. Chakana savdo tovar aylanmasi
- II. Ulgurji savdo tovar aylanmasi
- III. Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo tovar aylanmasi
- IV. Uslubiy ma'lumotlar
- V. Aloqador boshqa havolalar


I. Chakana savdo tovar aylanmasi

2026-yil 1-mart holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 87 614 tani tashkil etib, shundan faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 353 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 87 261 tani tashkil etdi.

2026-yilning yanvar-fevral oylarida respublikaning chakana savdo tovar aylanmasi 69 879,4 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 17,4 % ga o'sdi. Jumladan, yirik korxonalarning savdo tovar aylanmasi 13 206,6 mlrd so'mni (o'sish sur'ati – 129,7 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi esa 56 672,8 mlrd so'mni tashkil etdi (o'sish sur'ati – 121,2 %).

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari


2026-yil yanvar-fevral oylari



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Chakana savdo tovar aylanmasi hajmi \(oylik\)](#)

Chakana savdo hajmida yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi bo'yicha dinamikasi




II. Ulgurji savdo tovar aylanmasi

2026-yil 1-mart holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 53 123 tani tashkil etib, shundan faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 366 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 52 757 tani tashkil etdi.

Respublika bo'yicha 2026-yilning yanvar-fevral oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 73 683,0 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 16,5 %ga o'sdi.

Yirik korxonalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi 20 342,8 mlrd so'mni (o'sish sur'ati – 119,5 %), kichik biznes subyektlarining tovar aylanmasi esa 53 340,2 mlrd so'mni (o'sish sur'ati – 115,3 %) tashkil etdi. Respublikada jami ulgurji savdo hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi 72,4 %ni tashkil etdi.


Ulgurji savdo hajmi dinamikasi 2026-yil yanvar-fevral oylari, mlrd so'm



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Ulgurji savdo hajmi \(oylik\)](#)

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmining o'sish sur'atlari 2026 yil yanvar-fevral oylari



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Ulgurji savdo hajmi o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

III. Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo tovar aylanmasi

2026-yil 1-mart holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 27 243 tani tashkil etib, shundan faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 113 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 27 130 tani tashkil etdi.

2026-yilning yanvar-fevral oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 33 663,4 mlrd so'mni tashkil etdi va 2025-yilning mos davriga nisbatan 14,6 %ga o'sdi. Savdo aylanmasining 84,5 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi, yirik korxonalar ulushi esa 15,5 %ni tashkil etdi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati dinamikasi 2026-yil yanvar-fevral



IV. Uslubiy ma'lumotlar

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasining statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, "Milliy hisoblar tizimi – 2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), "Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar" (MDH qo'mitasi, 2011) xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalardan foydalaniladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlari yashirin iqtisodiyotning statistik baholash natijalari inobatga olingan holda hisoblanadi.

Ba'zi hollarda, jami sonlar yig'indisi o'rtasidagi kichik tafovutlar ma'lumotlarni yaxlitlash bilan izohlanadi.

V. Aloqador boshqa havolalar

[Ulgurji savdo hajmi \(oylik\)](#)

[Ulgurji savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasi hajmi \(oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi \(oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

[Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi \(oylik\)](#)

[Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

Chop etishga mas'ul:
*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi boshqarmasi*

Manzil: 100170, Toshkent,
Mustaqillik shoh ko'chasi, 63.
Elektron pochta: info@stat.uz
Tel.: 71-203-80-00 (1180, 1185)

